

FRANSUZ PAREMIYALARIDA “MAMOT” KONSEPTINING GRAMMATIK MODELLARI

Jo'raqulova Go'zal

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi.

gozaljoraqulova3003@gmail.com Tel: +998 913143023

Suvonova Nigorabonu Nizomiddinovna

Ilmiy rahbar. Samarqand davlat chet tillar instituti professori.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19970152>

Annotatsiya. Mazkur maqolada fransuz paremiologiyasida “mamot” konseptining grammatik modellari tahlil qilinadi. O'lim tushunchasi insoniyat tarixidagi eng universal va falsafiy kategoriyalardan biri sifatida barcha madaniyatlarda uchraydi va har bir xalqda o'ziga xos talqin qilinadi. Fransuz maqollarida “la mort”, “mourir”, “fermer les yeux”, “rendre l'âme”, “décéder”, “quitter ce monde”, “rejoindre les ancêtres” kabi birliklar orqali o'lim konsepti ifodalanadi. Ushbu birliklarning grammatik tuzilmalari, semantik xususiyatlari hamda ularning xalq mentaliteti bilan bog'liqligi o'rganiladi. Tahlil natijasida “La mort + être”, “Fermer les yeux + c'est + infinitif”, “Mourir + complément”, “Quitter ce monde + c'est + infinitif” kabi modellar eng faol qo'llanilishi aniqlangan. Ushbu modellar orqali o'limning ontologik mohiyati, axloqiy-didaktik mazmuni va poetik-metaforik talqini yoritiladi. Maqola fransuz paremalarining lingvistik, madaniy va falsafiy ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: paremiologiya, konsept, mamot, o'lim, fransuz maqollari, grammatik model, metafora, semantika, madaniyat, mentalitet.

Аннотация. В данной статье анализируются грамматические модели концепта «смерть» во французской паремии. Понятие смерти является одной из самых универсальных и философских категорий в истории человечества и присутствует во всех культурах, приобретая у каждого народа своеобразное толкование. Во французских пословицах концепт смерти выражается через такие единицы, как «la mort», «mourir», «fermer les yeux», «rendre l'âme», «décéder», «quitter ce monde», «rejoindre les ancêtres».

Исследуются их грамматические структуры, семантические особенности и связь с народным менталитетом. В результате анализа установлено, что наиболее активными являются модели «La mort + être», «Fermer les yeux + c'est + infinitif», «Mourir + complément», «Quitter ce monde + c'est + infinitif». Через данные модели раскрываются онтологическая сущность смерти, её нравственно-дидактическое содержание и поэтико-метафорическое осмысление. Статья показывает лингвистическую, культурную и философскую значимость французских паремий.

Ключевые слова: паремииология, концепт, смерть, французские пословицы, грамматическая модель, метафора, семантика, культура, менталитет.

Abstract. This article analyzes the grammatical models of the concept of “death” in French paremiology. The concept of death is one of the most universal and philosophical categories in human history and exists in all cultures, where it receives different interpretations depending on national worldview. In French proverbs, the concept of death is expressed through such units as “la mort,” “mourir,” “fermer les yeux,” “rendre l'âme,” “décéder,” “quitter ce monde,” and “rejoindre les ancêtres.”

The study examines their grammatical structures, semantic features, and their connection with national mentality. The analysis shows that the most active models are "La mort + être," "Fermer les yeux + c'est + infinitif," "Mourir + complément," and "Quitter ce monde + c'est + infinitif." These models reveal the ontological essence of death, its moral-didactic meaning, and its poetic-metaphorical interpretation. The article highlights the linguistic, cultural, and philosophical significance of French paremias.

Key words: paremiology, concept, death, French proverbs, grammatical model, metaphor, semantics, culture, mentality.

"Mamot" konsepti insoniyat tarixidagi eng universal tushunchalardan biri hisoblanadi. U barcha madaniyatlarda mavjud bo'lib, har bir xalqda o'ziga xos talqin qilinadi. Paremiologik birliklar til va madaniyatning uzviy bog'liqligini aks ettiradi. Ular xalqning tarixiy tajribasi va mentalitetini ifodalaydi. "Konsept" tushunchasi paremiologik birliklarni anglashda asosiy vosita hisoblanadi.

"Mourir" – Bu soʻz eng koʻp uchraydi, demak fransuz maqollarida oʻlim fenomeni – markaziy, dominant tushuncha. "Mourir" feʼli oʻlimning bevosita, tabiiy jarayon sifatidagi talqinini beradi. "Il faut mourir..." modeli oʻlimning muqarrarligini; "On meurt comme..." modeli esa oʻlimni hayot natijasi sifatida koʻrsatadi: « *Il faut mourir pour vivre longtemps.* », « *On ne meurt qu'une fois.* », « *Tôt ou tard, il faut mourir.* », « *Qui craint de mourir ne vit pas.* »

"Fermer les yeux" – Bu metaforik birlik ikkinchi oʻrinda turadi. Oʻlimni uyqu, jimlik, yakuniy tinchlik sifatida talqin qiladi. "*Fermer les yeux + c'est + infinitif*" modeli eng faol. Bu fransuz mentalitetida oʻlimga nisbatan yumshoq, poeziyalashgan munosabat mavjudligini koʻrsatadi: « *Fermer les yeux, c'est entrer dans le dernier sommeil.* », « *Fermer les yeux, c'est laisser la vie aux vivants.* », « *Fermer les yeux, c'est partir sans bruit.* »

"La mort" – oʻlimni falsafiy abstraktsiya sifatida ifodalaydi: tenglashtiruvchi kuch, taqdir, umumiy qonuniyat sifatida. "*La mort est...*" modeli oʻlimning ontologik mohiyatini ochishga xizmat qiladi: « *La mort est inévitable.* », « *La mort est le grand égalisateur.* », « *La mort est le destin de tous.* », « *La mort est la fin de toutes choses.* »

"Rendre l'âme" – bu birlik oʻlim jarayonini ruhning tanani tark etishi sifatida tasvirlaydi.

Koʻproq diniy, ruhiy va poetik semantika hukmron. "*Rendre l'âme en paix*" — tinch oʻlimni taʼriflashning eng koʻp ishlatiladigan modeli: « *Rendre l'âme est la fin de toute vie.* », « *Rendre l'âme après avoir aimé est un don complet de la vie.* », « *Rendre l'âme en priant est un passage serein.* »

"Décéder" –bu feʼl koʻproq huquqiy, rasmiy, adabiy uslubda qoʻllanadi. Bir xil mazmunni rasmiy-neytral tarzda ifodalash uchun xizmat qiladi: « *Décéder sans avoir aimé est une perte de vie.* », « *Décéder en paix vaut mieux que vivre en courroux.* », « *Décéder en honneur vaut mieux que vivre dépourvu de celui-ci.* »

"Quitter ce monde" va "Rejoindre les ancêtres" – bu iboralar oʻlimni 'ketish', 'dunyo bilan vidolashish' sifatida yumshatadi. Ajdodlarga qoʻshilish tushunchasi oʻlimni davomiylik va oʻtmish bilan bogʻliq jarayon sifatida koʻrsatadi.

Fransuz paremiologiyasida "oʻlim" (la mort), "oʻlish jarayoni" (mourir), "ruhni topshirish" (rendre l'âme), "koʻzni yumish" (fermer les yeux) kabi semantik yadrolar atrofida tuzilgan

maqollar maxsus grammatik modellar orqali shakllanadi. Ularning umumiy xususiyati shundaki, bu modellar ontologik ta'rif, aksiologik baho, metaforik qarash, hayotiy tajriba asosidagi xulosalarni ifodalash uchun xizmat qiladi.

"La mort + être + nom" va "La mort + négation + verbe" — bu modellar o'limning ontologik mohiyatini, uning universalligi va betarafligini ifodalaydi. Hayot bilan taqqoslaganda o'lim abstrakt, falsafiy kategoriya sifatida "La mort est..." modeli orqali ta'riflanadi: u tenglashtiruvchi kuch, taqdir, hamma uchun umumiy qonun.

"Fermer les yeux" va "Rendre l'âme". "Fermer les yeux + c'est + infinitif" modeli (8 ta) o'limni uyqu, tinchlik, boshqa dunyoga o'tish sifatida tasvirlaydi. "Rendre l'âme + complément" esa ruhiy-diniy aspektni ochadi. Bu modellar fransuz madaniyatida o'limga nisbatan yumshoq, poetik munosabat mavjudligini ko'rsatadi.

Harakatga doir modellar: "*Quitter ce monde*" va "*Rejoindre les ancêtres*". "*Quitter ce monde + c'est + infinitif*" va "*Rejoindre les ancêtres + c'est + infinitif*" tuzilmalari o'limni yo'qolish emas, ketish, o'tish sifatida idrok ettiradi. Bu modellar fransuz xalq og'zaki ijodidan kelib chiqqan bo'lib, o'limga poetik va ramziy ma'no beradi.

"Mourir" bilan bog'liq modellar: axloqiy-didaktik qoidalar. "On meurt comme + proposition" va "Qui vit par X + mourra par X" konstruktsiyalari o'limni hayot natijasi sifatida ifodalaydi. "Mieux vaut mourir + Adj + que + vivre + Adj" modeli esa o'limni tanlov, qadriyat masalasi sifatida ko'rsatadi. Bu modellar fransuz moralistik tafakkurining asosiy tamoyillarini aks ettiradi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, quyidagi modellar eng faol hisoblanadi: La mort + être + nom → o'limning mohiyatini, metaforik tasvirini ifodalaydi, Fermer les yeux + c'est + infinitif → o'limning poetik-metaforik talqini, Mourir/Décéder + en + complément → o'limning holati, sifatini bildiradi, Quitter ce monde / Rejoindre les ancêtres + c'est + infinitif → o'lim jarayoni, o'tish g'oyasi. Tahlildan ko'rinadiki, fransuz maqollarida o'limga oid fikrlar asosan takrorlanuvchi grammatik modellarga asoslanadi. "La mort + être" modeli o'limni ta'riflaydi, "mourir" modellari o'lim qoidalarini belgilaydi, "fermer les yeux" va "rendre l'âme" modellari esa o'limni poetik, metaforik tarzda ifodalaydi. Shunday qilib, fransuz maqollari o'limni uch asosiy nuqtai nazardan yoritadi: o'limning mohiyati, o'limning qoidalari va o'limning ramziy-poetik talqini. Bu esa ularning nafaqat lingvistik, balki chuqur falsafiy va madaniy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиологии. - Москва: Наука, 1988. -236 с.
2. Сувонова Н. Frazologiyada ro'zg'or buyumlari leksemasining ayrim referensiallik xususiyatlariga doir (fransuz va o'zbek tili materialida) // Зарубежная лингвистика и лингводидактика. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 35.
3. Сувонова Н.Н. НЕКОТОРЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВИЦ НА ФРАНЦУЗКОГО ЯЗЫКА // Ученый XXI века, 2016. № 2-5 (15). Филологические науки. -С. 46-48. <https://www.researchgate.net/profile/Olim-Turakulov/publication/352284>

4. Сувонова Н., Алиева Г. Ўзбек халқ мақолларини француз тилига таржима қилишнинг миллий хусусиятлари. Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2020, No 3(32), 192–205 <https://journal.fledu.uz>
5. Сувонова Н. Н., Долиева Л.Б. Французча ономатопик феъллар иштирокидаги ибораларда инсон руҳияти тасвири // Ўзбекистонда хорижий тиллар. – 2020. – № 2 (31). – Б. 65–79. // Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan” <https://journal.fledu.uz>